



**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI “TABIIY FANLAR VA
ULARNI O‘QITISH METODIKASI” FANI MAVZULARI ASOSIDA MA’NAVIY
FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASH**

Nabiyeva Dilfuza Temirovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Samarqand filiali o‘qituvchisi

nabiyevadilfuza07@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini “Tabiiy fanlar va ularni o‘qitish metodikasi” fani bo‘yicha ma’ruza, seminar, amaliy va b.q. mashg‘ulotlarda boshlang‘ich ta’lim “Tabiiy fanlar (Science)” (1-2-3-4-sinflar) bo‘yicha dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalash ishiga metodik tayyorlashni imkoniyatlari haqidi.

Kalit so‘zlar: Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, kichik maktab yoshidagi o‘quchilar, “Tabiiy fanlar va ularni o‘qitish metodikasi”, “Tabiiy fanlar (Science)”, mashg‘ulotlar.

Аннотация: Данная статья готовит будущих учителей начальной школы к лекциям, семинарам, практическим занятиям и т.п. Методическая подготовка к работе по нравственному воспитанию учащихся младших классов на уроках и внеклассной деятельности в начальной школе «Наука» (1-2-3-4 классы) о ВОЗМОЖНОСТЯХ.



Ключевые слова: Будущие учителя начальных классов, учащиеся младшего школьного возраста, «Естественные науки и методика их преподавания», «Наука», обучение.

Abstract: This article prepares future elementary school teachers for lectures, seminars, practical, etc. Methodical preparation for the work of moral education of elementary school students in classes and extracurricular activities in elementary education "Science" (grades 1-2-3-4) about the possibilities.

Key words: Future primary school teachers, students of junior school age, "Natural sciences and their teaching methods", "Science", training.

Oliy ta'lim muassasasida o'quv-jarayonini kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tashkil etish, unda kiritiladigan har bir fanning bo'lajak mutaxassis (o'qituvchi)ni kelgusi faoliyatga pedagogik tayyorlashga qaratilishini ko'zda tutadi. Ya'ni, boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasasida o'qitilayotgan fanlarning har birini o'rganish jarayoni professor-o'qituvchilardan mazkur fanlar mavzularini boshlang'ich maktab ta'lim mazmuni bilan bog'liq holda yoritishning o'ziga xos tomonlarini talabalarga muntazam ravishda tushuntirib borishni taqozo etadi.

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali 5111700- "Boshlang'ich ta'lim" ixtisosligi yo'nalishi o'quv rejasi kiritilgan "Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi" fani bo'yicha ma'ruza, seminar, amaliy, laborotoriya va b.q. mashg'ulotlarida boshlang'ich ta'lim "Tabiiy fanlar (Science)" (1-2-3-4-sinflar) asosida dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalash ishiga muntazam ravishda o'rgatib borishni ko'zda tutadi.

Shuningdek, tabiiy-ilmiy fanlar bo'yicha ma'ruza, amaliy va laborotoriya mashg'ulotlarida professor-o'qituvchilarning boshlang'ich maktab "Tabiiy fanlar (Science)" (1-2-3-4-sinflar)dasturlarining mavzu va savollarini OTM auditoriya



mashg'ulotlarida yuqorida nomlari keltirilgan fan mavzulari nuqtai nazaridan tahlil qilayaptilar, ularni boshlang'ich maktab amaliyotida o'quvchilarga chuqur va shu asosda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning mazmun, shakl, metod va vositalari bo'yicha bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga yo'l-yo'riq tavsiyalar berib borilmoqda.

Talabalarni – bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlash mazkur "Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi" fanining mazmuni (mavzu va savollari)ni milliyalashtirish va shu asosda ma'lum talablar bo'yicha ma'naviy tarbiya vazifalarini uyg'unlashtirishga faol yordam berish lozim bo'ladi. Ushbu zaruratni ma'lum darajada qondirish maqsadida ta'lim mazmuniga milliy ma'naviy tarbiya mazmunini asoslash, qayd qilish tamoyili berilgan.

Mazkur tamoyilning mohiyati u yoki bu mavzuni ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan yoritish uchun qo'llaniladigan tushunchalar ichidan milliy ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan eng muhimlarini ajratib olish, ularga tarbiyaviy tus berish, izohlashdan iborat.

Dars rejasiga ma'naviy faoliyatni kiritish o'qituvchilarni qiyinchiliklarga duchor qilishi mumkin. O'quv dasturlarida ma'naviy tarbiyaning o'rnini belgilash zarur. Darslarda ma'naviy qadriyatlarni ochib beruvchi misollar va vaziyatlarni keltirish, o'quvchilarning diqqatini jalb qilishga yordam beradi. Shuning uchun ham Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir" degan edilar [1].

Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligini buyrug'iga binoan bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari keljakdagi kasbiy faoliyatlarida "Tabiiy fanlar"dan 1-sinflarda haftasida 1 soat, 2-3-4-sinflarda haftasiga 2 soatdan dars o'tadilar [2].

"Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi" fanning mazmuni, mavzu va savollari ma'naviy tarbiya nuqtai nazaridan tahlil qilib, ulug' alloma va mutafakkirlarning boy ilmiy merosi va mustaqillik yillarida tabiatshunoslik bo'yicha erishgan yutuqlarimizdan saralab



olingan ma'naviy mazmun bilan bog'liq materiallarni imkoniyatlarini ochib berishga harakat qilamiz.

“Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi” va boshlang'ich ta'lim “Tabiiy fanlar (Science)” (1-2-3-4-sinflar) larning aksariyat mavzulari bo'yicha kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida o'rganish jarayonida talabalarni ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlashning yo'naltirilgan ishlanmasi (tavsiyasi) tayyorlandi. Maqola hajmi chegaralanganligi munosabati bilan mazkur ishlanmaning ayrim mavzularini talabalarni ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlash imkoniyatlarini qaraymiz. Jumladan, “Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi” namunaviy fan slabusida keltirilgan “Quyosh sistemasi va uning tuzilish”, “Sayyorlar va ularning qiyosiy tahlili”, “Yerning umumiy xarakteriskasi” mavzusi hamda umumta'lim maktabini boshlang'ich 3-sinf “Tabiiy fanlar” ishchi rejasi va darsligini “Yulduzlar va sayyoralar”, “Quyosh tizimi” mavzusi birgalikda o'rganib chiqilib, talabalarni ma'naviy faoliyatga metodik tayyorlashga yo'naltirilgan ta'lim mazmuni, metod, vositalari yoritib berishga harakat qilindi.

“Tabiiy fanlar va ularni o'qitish metodikasi” faning tahlili, uning aksariyat boblari, mavzulari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kelgusi pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashga kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tayyorlashga keng potensial imkoniyatlari namoyon qilindi. Jumladan, “Quyosh sistemasi va uning tuzilish”, “Sayyorlar va ularning qiyosiy tahlili” mavzusi mazmuniga talabalarda tarixiy xotirani tarkib toptiradigan materiallarni singdirish asqotadi.

Quyosh yulduzlar deb ataladigan osmon jismlari qatoriga kiradi va hamma yulduzlar kabi o'ta qizigan gazlarning o'zidan nur chiqaradigan sharsimon katta uyumidan iboratdir..., buyuk bobokalonlarimiz Ahmad Farg'oniyning “Astronomiya asoslari” haqidagi kitobi XI, XII asrdan boshlab lotin, ivrit tilariga tarjima qilingan. U Yevropada Al-Fraganus nomi bilan mashhur.



Yevropada uygʻonish davrining ulugʻ mutafakkiri, buyuk italyan shoiri Aligeri Dantening charxi falak yaratilishi haqidagi tasavvurlarini shakllanishida vatandoshimiz qomusiy alloma Ahmad Fargʻoniyning asarlari beqiyos oʻrin tutgan.

Mirzo Ulugʻbek va safdoshlari oʻz davrida astronomiya sohasi bilan shugʻullanib ulkan yutuqlarga erishdilar. Mirzo Ulugʻbekning “Ziji jadidi Koʻragoniy” asari XVII asrdan boshlab ingliz, faransuz, rus, gruzin tillariga tarjima qilina boshladi. Bu ikki olimning astronomiya sohasiga qoʻshgan hissalariga hurmat yuzasidan Oydagi kraterlardan ikkitasi atoqli astronom Yan Geveliy tomonidan ikki buyuk vatandoshimiz – Ahmad Fargʻoniy va Mirzo Ulugʻbek nomi bilan ataganini talabalarga yetkazish orqali ularda faxrlanish tuygʻusini joʻsh urdiradi.

XVII asrda Mirzo Ulugʻbekning madrasasi va rasadxonasi fransiyalik faylasuf va yozuvchi Volter tomonidan “Ulugʻbekning Samarqand akademiyasi” deb ataldi.

Bobur Mirzoning “Boburnoma” asari [45-]da Mirzo Ulugʻbekning “Ziji...” va ungacha “Elxoniy”, “Tusiy” va “Mamun” rasadxonalari ularda tuzilgan yulduzlar katologlar bilan tanishishlari orqali talabalarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish xislarini uygʻotadi.

Mashxur fransuz matematigi va astronomi Per Lapas “Uluoʻbek Tixo Bragega qadar mavjud yulduzlar katologlaridan Afzal, yangi yulduzlar jadvalini tuzdi”, ulugʻ ajdodlarimizni “Buyuk kuzatuvchi”, deb ataganini tushuntirish, shubxasiz ularda milliy gʻururni joʻsh urdiradi.

Mazkur mavzu boʻyicha oʻtilgan materialni chuqur oʻzlashtirish, mustahkamlash, tizimlashtirish hamda talabalarda Quyosh sistemasiga oid tasavvurlarni kengaytirishga undovchi taʼlimning interfaol tarmoqlanish usulidan foydalanish asqotadi.

Yuqorida koʻrsatilganidek, Mirzo Ulugʻbek “Ziji jadidi Koʻragoniy”ning dunyoviy ahamiyatga molik boʻlishini sabablarini ifodalash asqotadi.

“Yulduzlar tizimi”ni oʻrganishda talabalarni oʻzbek millatining gʻururiga aylangan Mirzo Ulugʻbekning rasadxonasi va unda 1018 ta yulduzni kuzatish asosida yaratilgan



jahonga mashhur “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asari va uning nomi bilan bog‘liq muzeyi bilan tanishtirish joiz [3].

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. <http://www.gazeta.uz>.
2. Maktabgacha va maktab ta’lim vazirligini “2023-2024-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja” 2023-yil 15-maydagi 125-sonli buyrug‘i.
3. Narziquil Shodiyev, Dilfuza Nabiyeva ”Tabiatshunoslik va uni o‘qitish metodikasi ta’limida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash”. II qism. Uslubiy qo‘llanma. – Samarqand: SamDCHTI nashiriyoti, 2022. – 50 bet.